

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Xalqaro xususiy huquqda ota-onalar va bolalar o'rtasidagi shaxsiy hamda mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish.

Habibullayev Beksulton Ilhom o'g'li.

Toshkent davlat yuridik universitet

Xususiy huquq fakulteti 4-kurs talabasi

e-mail: habibullayevbeksulton@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro xususiy huquqda transmilliy oilaviy munosabatlarda ota-ona va bolalar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy munosabatlarning vujudga kelishi, shakllanishi hamda tartibga solinishi asoslari o'rganiladi. Shuningdek ayrim xorijiy davlatlarning oliaviy hamda ota-onalar va bolalarning o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan va mustahkamlangan amaldagi qonunchiligi O'zbekistonning milliy qonunchiligi bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilgan holda o'rganildi.

Аннотация: В данной статье исследуются основы возникновения, формирования и регулирования личных неимущественных и имущественных отношений между родителями и детьми в транснациональных семейных отношениях в международном частном праве. Также было изучено действующее законодательство отдельных иностранных государств, направленное на регулирование личных и имущественных отношений между родителями и детьми, с проведением сравнительно-правового анализа с национальным законодательством Узбекистана.

Annotation: This article explores the basics of the emergence, formation and regulation of personal non-property relations between parents and children in transnational family relations in international private law. Also, the current legislation of some foreign countries, aimed at regulating personal and property relations between parents and children, was studied with a comparative-legal analysis of the national legislation of Uzbekistan.

Kalit so'zlar: oila, ota-ona, shaxsiy nomulkiy munosabat, mulkiy munosabat, huquq layoqati, muomila layoqati, transmilliy munosabat, kolliziya.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatda insonlar o'rtasida transmilliy munosabatlar tobora kengayib, ildiz otib borayotganligiga amin bo'lishimiz mumkin. Turli millat, elat, madaniyat hamda o'ziga xos huquqiy tizimga mansub shaxslar o'rtasida oilaviy munosabatlarning vujudga kelishi, bollarni farzandlikka olish yoki vasiylikka olish kabi ijtimoiy munosabatlar xalqaro xususiy huquqda oilaviy munosabatlarning o'rnini va ahamiyatini tobora oshirib boradi.

Xalqaro munosabatlarda transmilliy oilalarning vujudga kelishi, shakllanishi, insonlar o'rtasida shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solish masalasi, tartibga soluvchi xalqaro hujjatlarning amalda ishlashini yana dolzarbroq qilib qo'ymoqda. Xalqaro xususiy huquq doirasida oilaviy munosabatlarning tartibga solinishi nafaqat huquqiy, balki insoniy nuqtaiy nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Fuqaroligi turlicha bo'lgan yoki turli davlatlarda yashovchi ota-onalar va bolalar o'rtasidagi huquqiy nizolar milliy huquq tizimlari bilan birga xalqaro xususiy huquq normalarini qo'llashni talab etadi. Masalan, bolaning yashash joyini aniqlash yoki aliment undirishda turli davlat qonunchiliklari uyg'unlashtirilishi kerak bo'ladi. Har bir davlatning oilaviy

huquqiy tizimi o'ziga xos bo'lganligi sababli, xalqaro xususiy huquq konflikt normalari yordamida turli huquq tizimlari o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etadi. Bu normalar oilaviy munosabatlarda huquqni qo'llashni tartibga soladi. Ushbu hujjatlar orqali ota-onalar va bolalar o'rtasidagi huquqiy masalalar davlatlararo hamkorlik asosida hal qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 5-moddasiga binoan oila to'g'risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlar sanab o'tilgan. Ushbu sanab o'tilganlarning ichida, oila a'zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o'rtasidagi, oila to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o'zga shaxslar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solishi haqida gap ketgan. Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida nafaqat insonlarga huquqlar beradi, balki majburiyatlar ham yuklanadi. Bu esa har bir davlatning ichki qonunchiligidagi normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Ammo savol tug'iladi. Agarda har bir davlatda o'z hududida o'z fuqarolari o'rtasidagi oilaviy munosabatlarni ichki qonunchiliklari bilan hal etadigan bo'lsa, oilaviy munosabat chet el elementi bilan murakkablashga holada tuziladigan bo'lsa u qanday tartibga solinadi? Tabiiyki chet elementi aralashgan munosabatlarda turli xil davlatlar qonunchiliklar ushbu munosabat turlicha tartibga solinadi. Bunday vaziyatda qaysi davlat huquq normalari bevosita qo'laniladi degan savollar paydo bo'lishi mumkin. Ushbu holatda ijtimoiy munosabatni tartibga solishda kollizion normalar muhim ro'l o'ynaydi. Kollizion norma tushunchasida huquqshunos olimlar turlicha ta'riflar beradi. **I.S. Pereterskiy** mazkur masala bo'yicha *"Kollizion norma muayyan masalani hal etishni tartibga soladi, lekin mustaqil ravishda emas, balki o'zi havola qilayotgan huquq manbasi bilan birga. Alohida olingan kollizion norma yuzaga kelgan yuridik masalani mohiyati bo'yicha hal qilmaydi, biroq degan fikrni ilgari suradi faqat sudya yoki boshqa organ o'z oldida yuzaga kelgan masala yechimini qaysi huquq tizimida topishi mumkinligini ko'rsatadi"*¹ Chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatlari doirasida tadqiqot olib borgan **N.X. Raxmonqulov**ning fikricha, *"Kollizion norma chet el elementi bilan murakkablashgan huquqiy munosabat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini o'ziga xos ravishda tartibga soladigan qoidalardan iborat"*² Yuqoridagi huquqshunoslarning fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki Kollizion norma-bu xalqaro xususiy huquqda vujudga kelgan ijtimoiy munosabatni huquqiy tartibga solinishi qaysi qonunchilik orqali hal etilishiga aniqlik kiritib beruvchi normadir. Ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solinishi quyidagicha bo'ladi:

1. Bolaning shaxsiy qonuni;
2. Ota-onaning shaxsiy qonuni;
3. Bolaning doimiy yashash qonun.³

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki kollizion norma vujudga kelgan munosabatni qaysi qonunchilik bilan tartibga solinishi kerakligini ko'rsatib o'tsa, uni tartib solish, nizoga huquqiy yechim berish albatta moddiy huquq normasi asosida amalga oshiriladi.

1 Крылов С.Б., Перетерский И.С. Международное частное право. Учебник. – М., 1959. – С. 49.

2 Rahmonqulova N.H. Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlarining tartibga solinishi. Avtoref. y.fn. - T., 2010. - 11-b

3 1 Xalqaro xususiy huquq. Darslik. 2019-y. 245-b

MULOHAZA VA NATIJALAR

Oilaviy munosabatlarda bola tushunchasi mavjud. Bola-kim? Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joizki 1924-yil 26-sentabrda **“Bola huquqlari to'g'risida”**gi Jeneva Konvensiyasida⁴ hamda 1959-yil 20-noyabrdagi **“Bola huquqlari”** to'g'risidagi Deklaratsiyada⁵ ham bola tushunchasiga aniq ta'rif berib o'tilmagan. Ammo vaqt o'tishi bilan 1959-yilda qabul qilingan **“Bola huquqlari to'g'risida”**gi konvensiyasi qoidalari yanda takomillashtirilib, 1989-yil 20-noyabrda BMT Bosh Assambleyasida **“Bola huquqlari to'g'risida”**gi konvensiya⁶ qabul qilindi. Ushbu konvensiyaning 1-moddasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining **“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”**gi qonunni 3-moddasiga binoan *“Bola - o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs”*- deya ko'rsatib o'tilgan. Bundan ko'rinib turadiki har qanday 18 yoshga to'lmagan, muomila layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar bola hisoblanadi.

Xalqaro xususiy huquda ota-ona bilan bollar o'rtasidagi munosabatlarni ikkita katta guruhga ajratishimi mumkin.

1. Shaxsiy no'mulkiy munosabatlar
2. Mulkiy munosabatlar.

Bu munosabatlar oilaviy hayotning barcha jabhalarini o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu oilaviy munosabat xalqaro xususiy munosabat sifatida vujudga kelganligi sababli xalqaro hamda milliy huquqiy tartibga solish mexanizmlarini talab qiladi. Oilaviy munosabatlarda ota-ona bilan bollar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarga to'xtaladigan bo'lsak. Shaxsiy nomulkiy huquqlar — insonning shaxsiyatiga bog'liq bo'lgan, moddiy qiymatga ega bo'lmagan huquqlardir. Bu huquqlar insonning qadr-qimmatini, sha'ni va obro'sini himoya qilish, shaxsiy hayotga daxlsizlik kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Ota-onalar va bolalar o'rtasida ushbu huquqlar muhim o'rin tutadi, chunki ularning o'zaro munosabatlari nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 11-bobida bevosita voyaga yetmagan shaxslarning shaxsiy nomulkiy huquqlariga bag'ishlangan. Ushbu bobga quyidagilar kiradi:

❖ **Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi.** Oila jamiyatning bir bo'g'ini hisoblanadi. Oila-bolaning tug'ilishi, ulg'ayishi, tarbiyalanishi, kamol topishi uchun sharoit mavjud bo'lgan tabiiy muhitdir. Har bir bolada, uning millati, dini, etiqodi va h.osidan qat'iy nazar oilaviy muhitda yashash va tarbiya olish huquqi mavjuddir. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi xalqaro huquq normalarida insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida tan olinadi. Ushbu huquq bola jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishida markaziy o'rinni egallaydi va bir nechta xalqaro hujjatlar bilan kafolatlangan. **“Bola huquqlari to'g'risida”**gi Konvensiyaning 7, 9-moddalarida bola ota-onaning qarmog'ida bo'lishi, parvarishlanish huquqining mavjudligini belgilab qo'ygan. Ushbu xalqaro hujjatning 18-moddasida Ota-onalar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi deya ko'rsatib o'tilgan. **“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”** 16, 25-moddalari hamda **“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt”**ning 10-moddasida bola

4 <https://cpd.org.rs/wp-content/uploads/2017/11/01 - Declaration of Geneva 1924.pdf>

5 <https://cpd.org.rs/wp-content/uploads/2017/11/1959-Declaration-of-the-Rights-of-the-Child.pdf>

6 <https://tergov.uz/uz/chilids/konventsija-o-pravah-rebenka>

oilada parvarishlanishga haqliligi, oilaviy muhitda yashash huquqi borligi hamda unga sharoit yaratish kerakligi haqida fikrlar yuritilgan.

❖ **Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi.** Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi uning emotsional va psixologik barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu huquq xalqaro va milliy huquqiy me'yorlar bilan kafolatlangan bo'lib, uni buzish bola manfaatlariga zid hisoblanadi va qonuniy javobgarlikka olib keladi. Shu bilan birga, davlat va sud organlari ushbu huquqni amalga oshirishda bolaning manfaatlarini ustuvor qo'yishi zarur. Xususan "**Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya**"ning 10-moddasi, "**Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi**"ning 16-moddasida, "**Yevropa inson huquqlari**" Konvensiyaning 8-moddalarida hamda "**Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasining qonunining 13-moddalarida ham bolaning oilaviy aloqalarga kirishishi, yaqin qarindoshlari bilan ko'rishish huquqini kafolatlab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

❖ **Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi.** Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi har bir bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu huquq xalqaro va milliy qonunchilikda kafolatlangan bo'lib, "**Bola huquqlari to'g'risida**"gi Konvensiyaning 12-moddasida bola o'zini qiziqtirgan barcha masalalarda fikrini erkin ifoda etish va qaror qabul qilishda uning fikrini hisobga olish zarurligi belgilangan. O'zbekiston qonunchiligida ham bola yoshi va yetuklik darajasiga mos ravishda o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekani mustahkamlangan. Ushbu huquq bolaning oilaviy, ta'limiy va ijtimoiy masalalarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

❖ **Bolaning ism, ota ismi va familiya olish va uning o'zgartirish huquqi.** Bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi, shaxsning identifikatsiyasi va ijtimoiy tasniflanishi uchun asosiy huquqiy vosita sifatida qaraladi. Bu huquq nafaqat bolaning shaxsiyati va huquqlarini tan olish, balki uning jamiyatda to'liq ro'yobga chiqishi uchun ham zarurdir. Ism va familiya, o'z-o'zidan, bolaga yagona huquqiy mavjudlikni ta'minlaydi, u orqali bola o'z huquqiy statusini belgilaydi, fuqarolikka oid asosiy hujjatlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu shuningdek, bolaning oiladagi o'rni, uning ota-onasi yoki qarindoshlari bilan aloqasi haqida ham ma'lumot beradi. "**Bola huquqlari to'g'risida**"gi Konvensiya (1989-yil) 7-moddasida bola tug'ilganidan so'ng darhol ro'yxatga olinishi, ism va ota ismi olish huquqi kafolatlanadi. Bu norma bolalarning shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish uchun muhimdir. Shuningdek, bolaning ism va familiyasini olish faqatgina ota-ona yoki boshqa qonuniy vakillari tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bunday holat, bolaning identifikatsiya qilinishini, ijtimoiy tizimda joylashishini, shaxsiy huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Ota-ona va bollar o'rtasida yuzaga keladigan oilaviy munosabatlar faqatgina nomulkiy tUSDagi munosabatlar bilan cheklanib qolmasdan, mulkiy munosabatlar ham mavjud bo'ladi.

❖ **Mulkiy munosabatlar** - jamiyatdagi boyliklarni o'zlashtirish xususidagi iqtisodiy munosabatlardir. Mulkchilik, birinchidan insonning boyligi bo'lmish ashyo, buyum yoki boshqa narsaga nisbatan egalik his-tuyg'usi bilan bog'liq munosabat, ikkinchidan ana shu boylik, ne'mat xususida kishilar o'rtasida vujudga kelgan munosabatdir.⁷ Ota-ona va farzand o'rtasidagi aloqalarda mulkiy munosabatlarni aliment, meros, mulkning shakillari bo'lgan umumiy va birgalikdagi mulklarga nisbatan egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish tashkil etadi. Ota-ona va bollar o'rtasidagi mulk huquqlarini alohida o'rganib chiqsak. Bollarda mulkiy huquqning vujudga kelishi, ulardan foydalanish hamda tasarruf etish huquqining vujudga kelishi ulardan foydalanish huquq va muomila layoqatining vujudga kelishiga bevosita bog'liqdir. Fuqarolik huquq layoqati - fuqarolarga o'zlarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xilma-xil huquqiy

7 M.X.Baratov. Mulk huquqi. Darslik. 2009-y. 7-bet

munosabatlarga kirtishishning yuridik imkoniyatini beradigan huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqatidir.8 O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 17-moddasiga binoan har bir shaxs tug'ildan paytdan e'tiboran huquq layoqatiga ega bo'ladi va vafot etishi bilan tugaydi. Bu norma Germaniya fuqarolik huquqida ham mavjud. Ammo ba'zi davlatlarda huquq layoqatining vujudga kelishi farq qiladi. Italiya fuqarolik qonunchiligida fuqarolik huquq layoqatining vujudga kelishi, ya'ni fuqarolik huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati bola ona tanasidan ajralgandan song 24 soat o'tgandan so'ng boshlanishi haqida belgilangan. Muomila layoqati - fuqarolarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini olish, amalga oshirish, o'zlari uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir.9 Muomila layoqatiga ega bo'lish, duyo davlatlarida turlicha yoshga qo'yilgan talablar mavjud. Xususan Yevropaning ko'pgina davlatlarida 18 yosh muomila layoqatiga ega bo'lish yoshi hisoblanisa, Shevetsariyada esa 20 yosh muomila layoqatiga ega bo'lish yoshi sifatida o'rnatilgan. AQShning shatlatlarida ham muomila layoqtinign vujudga kelshi yoshli turlicha ekanligini ko'rishimiz mumkin, Alabama, Missisipi, Nebrask, Vayomingda bu yosh - 21 yosh etib belgilangan. Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarda bolalarning mulkiy huquqlarni amalga oshirishga ko'ra, fuqarolik muomila layoqati *lex loci contractus* – bitim tuzilgan joy huquqiga ko'ra amalga oshiriladi. Anglo-sakson huquqiy oilasiga mansub davlatlarda *Lex nationalis*-mamlakat qonuni qo'llash, ya'ni shaxs qaysi davlat fuqaroligiga ega bo'lsa, o'sha davlat qonunchiligidan kelib chiqib qo'llaniladi.10

Xalqaro munosabatlarda bolalarning mulkiy huquqlari bollarning shaxsiy qonuniy bilan belgilanadi. Bolaning shaxsiy qonunni esa o'z navbatida bola fuqaroligiga mansub bo'lgan mamalakat qonuni, bola doimiy yashayotgan davlat qonuni, sud joylashgan davlat qonuni hamda eng uzviy aloqada bo'lgan mamalakat qonuni asosida tartibga solinadi.

XULOSA

❖ Xalqaro xususiy huquqda ota-onalar va bolalar o'rtasidagi shaxsiy hamda mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar, oilaviy barqarorlik va farzandlarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim masalalardan biridir. Ushbu munosabatlarni tartibga solishda davlatlarning milliy qonunchiligi va xalqaro huquqiy normalarning uyg'unlashuvi muhim ahamiyatga ega. Asosiy huquqiy me'yorlar bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularning yashash, rivojlanish va ta'lim olish huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Xalqaro konvensiyalar, xususan, BMTning Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar davlatlararo hamkorlikning mustahkam poydevorini yaratadi. Shuningdek, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mulkiy masalalarni tartibga solishda xalqaro xususiy huquq normalarining kollizion qoidalari muhim rol o'ynaydi. Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi migratsiya jarayonlari ortib borayotgani sababli, bunday munosabatlarni tartibga solish masalasi tobora dolzarblashmoqda. Shuning uchun milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va huquqni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish ota-onalar va bolalar manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlaydi. Shu orqali inson huquqlari, xususan, oilaviy huquqlarni himoya qilishga qaratilgan global huquqiy tartibotni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

8 Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. Darslik. 2017-y. 6-bet

9 Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. Darslik. 2017-y. 10-bet

10 123 Халфина Р.О. Договор в английском праве. - М.: 1950. – С.46.

- ❖ Крылов С.Б., Перетерский И.С. Международное частное право. Учебник. – М., 1959. – С. 49.
- ❖ Rahmonqulova N.H. Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlarning tartibga solinishi. Avtoref. y.f.n. - T., 2010. - 11-b
- ❖ Xalqaro xususiy huquq. Darslik. 2019-y. 245-b
- ❖ M.X.Baratov. Mulk huquqi. Darslik. 2009-y. 7-bet
- ❖ Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. Darslik. 2017-y.
- ❖ 123 Халфина Р.О. Договор в английском праве. - М.: 1950. – С.46.
- ❖ О.Т.Хазратқолов. Xalqaro xususiy huquqda kollizion normalar. O'quv qo'llanman. 2024-y.
- ❖ Mualliflar jamoasi. Xalqaro xususiy huquq. Darslik. 2008-y.

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR RO'YXATI:

- ❖ “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Jeneva Konvensiyasi. 1924-yil 26-sentyabr.
- ❖ “Bola huquqlari” to‘g‘risidagi Deklaratsiya.1959-yil 20-noyabr.
- ❖ BMT Bosh Assambleyasida “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya.1989-yil 20-noyabr.
- ❖ “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”
- ❖ “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi
- ❖ O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun